

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAHALLA TIZIMINING FALSAFIY-NAZARIY ASOSLARI

Turdiyev Muhammad Abdullaevich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahalla fuqarolik instituti va uning faoliyatiga doir falsafiy-nazariy fikr mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek mahalla to‘g‘risida olimlarning qarashlari muallif tomonidan tahlil qilingan. Tarixiy taraqqiyot davomida mahalla rivoji masalasi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla, urf-odat, ta’lim - tarbiya, kasb-hunar, intellekt, ijodiy salohiyat.

Аннотация. В данной статье представлены философские и теоретические соображения относительно гражданского института Махалла и его деятельности. Автор также анализирует взгляды ученых на Махаллу. Рассматривается вопрос развития Махаллы на протяжении исторического развития.

Ключевые слова: Махалла, обычаи, образование, профессия, интеллект, творческий потенциал.

Annotatsiya. This article presents philosophical and theoretical considerations on the Mahalla civic institution and its activities. The author also analyzes the views of scholars on the Mahalla. The issue of the development of the Mahalla throughout historical development is analyzed.

Keywords: Mahalla, customs, education, profession, intellect, creative potential.

Yangi O‘zbekistonda mahalla tizimiga bo‘lgan e’tibor tubdan o‘zgardi. Zero, o‘z mohiyatiga ko‘ra ham mumtoz ham innovatsion tizim aholi bilan bevosita ishlashning eng samarali va an’anaviy mexanizmi sifatida namayon bo‘lmoqda. Xalq bilan muloqotning bunday yangicha usulini boshqacha qilib mahallabay ishlash tizimi deb atayapmiz³⁸ mahallalarda tinchlikni ta’minlash uchun ham mahalla institute muxim mil hisoblanadi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish nazariyasi dastlab XVIII asrning ikkinchi yarmida G‘arbiy Yevropada ishlab chiqilganidan so‘ng paydo bo‘ldi. Mazkur mahalliy hokimiyatlar va o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘rtasidagi munosabatlar, hokimiyat tuzilmalari faoliyatini boshqarish, tomonidan saylanish prinsipi g‘oyalariga yondashish jihatidan chuqur tahrir etildi. Xususan, yangi tarixning ilk davrida fuqarolar tomonidan saylanadigan o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mustaqilligi konsepsiyasi, ularning qishloq jamoalari va shaharlardagi ishlarga rahbarlik qilishda markaziy hokimiyatga nisbatan alohidaligi ilmiy jamoatchilikning jiddiy e’tiborini tortib keldi. Bu organlar faoliyatiga davlat boshqaruvi sohasidan

³⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi 2020-yil 25-yanvar №19 (7521) soni.

tashqaridagi alohida amal qiluvchi bo'g'in sifatida qarash rusumga kirgan. 1985-yil 15-oktyabrda Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi Yevropa Xartiyasi" ning 3-moddasida bu tuchuncha quydagicha ifodalanadi: "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish deganda, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z mas'ulligida, mahalliy aholi manfaatlari asosida, qonunlar doirasida uning davlat ishlarini aksariyat qismini boshqarishi va uni real uddalay olish qobiliyatiga aytiladi. Bu huquqlar erkin, yashirin, teng to'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlarda saylangan a'zoldan iborat kengashlar yoki o'zlariga hisobotlar berib boruvchi ijroiya organlariga ega bo'lishi mumkin"³⁹. Fuqarolik jamiyatida qonunlar hayotda nechog'li amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. "Men biror mamlakatga borsam, u yerda yaxshi qonunlar mavjudligi bilan emas, balki qonunlarga qanday itoat etilayotganligi bilan qiziqaman..."⁴⁰, deb yozgan Monteskye. Darhaqiqat, har bir mamlakatda qonunlarning xalqchilligi ularning nafaqat insonparvarlik mazmuni balki ularga yondashuv bilan belgilanadi.

"Mahalliy o'zini o'zi boshqarish, - ingliz olimi Aleksis Tokvilning talqinicha, - shunday bir siyosiy institutki, u nafaqat siyosatchilar uchun, balki umuman barcha fuqarolar uchun bir maktabdir"⁴¹. Darhaqiqat, bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar keng bo'lib, u fuqarolarning siyosiy ishtiroki uchun har tomonlama yetarlicha shart-sharoitlar yaratib beradi. O'zini o'zi boshqarish institutlari siyosiy madaniyat elementlarini shakllantirishning o'ziga xos imkoniyatdir. Binobarin, aynan ana shunday institutlar faoliyati siyosiy tizimning ham barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlab beradi. Fuqarolik institutlarining roli qancha kuchaysa jamiyatning demokratiyalashuvi ham shunsha kengayib boradi va haqiqiy ma'nodagi erkin, ochiq jamiyat rivoj topadi. Lekin deb ta'kidlovchi A.Tokvil, aytish joizki, ma'lum bir millat nodavlat tashkilotlar barpo etiladi va jamoaviy institutlarsiz ham erkin hukumat shakllantirishi mumkin. Olimning ta'kidlashisha, "...bunda fuqarolar erkinlikning haqiqiy ruhiga ega bo'la olmaydilar"⁴². Ta'kidlash joizki, o'zini o'zi boshqarish, ya'ni, mahalliy (yoki munisipal) boshqaruv ma'muriy-hududiy birliklardagi aholining manfaatlarini ifodalaydigan va saylab qo'yiladigan organlar hamda ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik ishlarni boshqarish uslubi holati G'arbiy Yevropada dastlab nazariya tarzida shakllandi.

XX asrning ikkinchi yarmida esa "umumiy farovonlik davlati" nazariyasi bilan bog'liq holda munisipal (o'zini o'zi boshqarishga doir) idora qilish konsepsiyasi ham takomillasha boshladi hamda munisipalitetlarga muayyan hududdagi aholining barcha tabaqalari manfaatlarini teng kafolatli va himoyalovchi ijtimoiy xizmat ko'rsatish vositasi sifatida qaraldi⁴³. Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaponiya kabi

³⁹ European Charter of Local Self-Government (ETS No. 122). Strasbourg 15/10/1985 - Treaty open for signature by the member States of the Council of Europe. 01/09/1988 (4 Ratifications).

⁴⁰ Монтескье Ш.Л. Избранные произведения. О законах в их отношениях к различным существам. – М., 1955. – С.164–165.

⁴¹ Tocqueville A. Democracy in america //Democracy: A Reader. – Columbia University Press, 2016. – С. 67.

⁴² Tocqueville A. Democracy in america //Democracy: A Reader. – Columbia University Press, 2016. – С. 76

⁴³ Habitat U. N. State of the world's cities 2012/2013: Prosperity of cities. – Routledge, 2013. – P. 44.

mamlakatlarda munisipal kengashlar maqomi huquqiy jihatdan munisipal ijroiya boshqaruvidan yuqori qo‘yilgan⁴⁴ bo‘lib, ularning vakolatiga quyidagilar kiradi:

- mahalliy byudjetni qabul qilish;
- yuqori tashkilotlar tomonidan hal qilinmagan ayrim masalalar bo‘yicha me‘yoriy qarorlar qabul qilish;
- mahalliy soliqlarni joriy etish;
- qarzlarni olish va ularni ishlatish masalarini hal etish, munisipalitetga qarashli mulkni tasarruf etish⁴⁵.

O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqaruvning mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv emas, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruvi deb nomlanishi masalaning asl mohiyatiga mos keladi va o‘zini o‘zi boshqaruvning davlat boshqaruvidan holi ekanligini ko‘rsatadi. “O‘zini o‘zi boshqarish fuqarolar faoliyatining bir yo‘nalishi, jahon davlatchiligi va jamiyat rivojlanishi tajribasida uchraydigan muhim institut hisoblanadi”⁴⁶. O‘zini o‘zi boshqarish fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan bo‘lib, bu huquq fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruv organlari orqali amalga oshiriladi.

Shu boisdan ham o‘zini o‘zi boshqarish muassasalari davlat bilan fuqarolarni bog‘lovchi muhim ko‘prik bo‘lib, bu faoliyat natijasida davlat bilan fuqarolar o‘rtasida alohida ijtimoiy munosabat vujudga keladi. Fuqarolik jamiyatida qurish faqat fuqarolarning jamiyat va davlat ishlaridagi ishtirokini ta‘minlash bilan chegaralanmaydi. O‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolarning davlat va jamiyat hayotida ma‘lum mavqeyga ega bo‘lishi uchun asos yaratadi. Bunga esa ta‘lim - tarbiya, odamlarning kasbiy, intellektual, ijodiy salohiyatini yuksaltirish ijtimoiy muhofaza choralari kuchaytirish ham kiradi. Ularning muhim vazifasi har bir shaxsning ongini, ma‘naviy kamolotini oshirish uchun, millatchilik, mahalliychilik kabi salbiy jihatlarni yo‘qotish uchun ish olib borishi va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an‘anlarga, Vatanga, davlatga, boshqa fuqarolarning manfaatiga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi 2020-yil 25-yanvar №19 (7521) soni.
2. European Charter of Local Self-Government (ETS No. 122). Strasbourg 15/10/1985 - Treaty open for signature by the member States of the Council of Europe. 01/09/1988 (4 Ratifications).
3. Монтескье Ш.Л. Избранные произведения. О законах в их отношениях к различным существам. – М., 1955. – С.164–165.
4. Tocqueville A. Democracy in america //Democracy: A Reader. – Columbia University Press, 2016. – С. 67.
5. Tocqueville A. Democracy in america //Democracy: A Reader. – Columbia University Press, 2016. – С. 76

⁴⁴ Kersting N. et al. Local governance reform in global perspective. – Springer-Verlag, 2009. – P. 12.

⁴⁵ Swianiewicz P. (ed.). Local government borrowing: Risks and rewards. – Open Society Institute, 2004. – P. 46.

⁴⁶ Pfeilschifter R. et al. Local self-governance in the context of weak statehood in antiquity and the modern era. A program for a fresh perspective. English edition, LoSAM Working Papers, Nr. 1 – 2020.

6. Habitat U. N. State of the world's cities 2012/2013: Prosperity of cities. – Routledge, 2013. – P. 44.
7. Kersting N. et al. Local governance reform in global perspective. – Springer-Verlag, 2009. – P. 12.
8. Swianiewicz P. (ed.). Local government borrowing: Risks and rewards. – Open Society Institute, 2004. – P. 46.
9. Pfeilschifter R. et al. Local self-governance in the context of weak statehood in antiquity and the modern era. A program for a fresh perspective. English edition, LoSAM Working Papers, Nr. 1 – 2020.